

STOMOTOLOGIK VA FARMASEVTIK TERMINOLOGIYADA LOTIN TILINING AHAMIYATI

Adamova Farangizbonu Jamol qizi

UrDU magistratura bo'limi lingvistika (ingliz tili) yo'nalishi

2-kurs magistranti farangizadamova004@gmail.com

Iskandarova Nodira Bahrambekovna

Ilmiy rahbar: TTA Uf "O'zbek til va adabiyoti tillar"

kafedrası katta o'qituvchisi (PhD)

ANNOTATSIYA

Maqolada hozirgi kundagi stomatologiya va farmasevtika sohasida ishlatiladigan atamalar va ularning tibbiyot sohasidagi ahamiyati, bu sohalarda lotin tilining o'rni va muhimlik jihatlari yoritib berilgan. Bundan tashqari bu sohalarda qo'llanilgan atamalarning misollari berilgan.

Kalit so'zlar: *Stomatologiya, farmasevtika, extractum, etimologiya, dori vositasi, material medica substantia, termin, pharmaceutic, davolash, leksema.*

ABSTRACT

The article describes the terms used in the field of stomatology and pharmaceuticals today and their importance in field of medicine, the role and importance of the Latin language in these fields. In addition, examples of terms used in these fields are given.

Key words: *Stomatology, pharmaceuticals, extractum, etymology, medicine, material medica substantia, term, pharmaceutic, treatment, lexeme.*

АННОТАЦИЯ

В статье описываются термины, используемые сегодня в области стоматологии и фармацевтики, и их значение в области медицины, роль и значение латинского языка в этих областях. Кроме того, приведены примеры терминов, используемых в этих областях.

Ключевые слова: *стоматология, экстракт, этимология, лекарство, субстанция, термин, фармацевтика, лечение, лексема.*

Tibbiy terminologiyasida lotin tilining ahamiyati juda katta hisoblanadi. Tibbiyotning har bir sohasida uchraydigan atamalarni chuqurroq o'rganishda lotin tilidagi so'zlarni asos qo'shimchalarga ajratishdagi qoidalar qo'l keladi. Turli tizimli tillar farmasevtik va stomotologik terminologiyasining vujudga kelishi va ushbu soha leksikasining turli darajada lingvistik muammolarini o'rganish insoniyat o'tmishining uzoq tarixiga borib taqaladi.

O'zbek tilidagi ayrim farmasevtik va stomotologik terminlarning etimologik kelib chiqishida Sharq mamlakatlarida yashab, ijod etgan tabiblarning bir necha avlodi uchun ustozlik qilgan, butun jahon tarixida ilmiy merosi bugungi kungacha ulkan qiziqish bilan o'rganilib, ilmiy-tadqiqot ishlarga uzoq vaqt davomida murojaat qilinib kelingan, jahon tan olgan mutafakkir Abu Ali ibn Sino, G'arb dunyosida Avitsenna nomi bilan tanilgan allomaning o'rni beqiyosdir. Abu Ali Ibn Sino o'zining boy ilmiy merosi bilan ham Sharqni, ham G'arbni hayratda qoldirgan buyuk alloma, tibbiyot va dorishunoslik sohalarining sultonidir. YUNESKO tashkiloti ibn Sino qalamiga mansub "Tib qonunlari" asarining ming yilligini nishonlash to'g'risidagi qarorni qabul qilinishi va mutafakkir sharafiga xalqaro oltin medal ta'sis etganligi sharq tibbiyotining jahon arenasida tutgan o'rnini hamda mavqeiini nechog'lik yuqori ekanini ko'rsatib beradi, albatta.

Ma'lumki, ilk renessans davrida farmasevtika sohasi bilan bog'liq bir qator salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Masalan: Abu Rayhon Beruniy (973-1048 y) "Kitab as-saydana fit-tibb" ("Tabobatda dorishunoslik"), Ahmad ibn Muhammad al-G'ofikiyning (1165 y) "Achjomi fi-t-tibb fi-l-adviya al mufrada" ("Sodda dorilar haqidagi kitob"), botanik va dorishunos olim Ziyouddin abu Muhammad ibn al-Baytarning (1248 y) "Kitob al-jomi li-mufradot al-adviya va-l-agziya" nomli asarlari mavjud. Biroq shuni ham qayd etib o'tish joizki, sharqda dorishunoslik, ya'ni farmasevtika sohasiga o'zlarining katta xissalarini qo'shgan yuqoridagi olimlargacha ham bir qator dorishunos olimlar yashab, ijod etishgan. Sharqda yashab, ijod etgan

ushbu olimlarning turli xastaliklarni davolash maqsadida qo‘llagan dor-vositalarining farmologik ta‘sirini zamonaviy farmologiya nuqtai nazaridan tahlil qilinganda, amaliyotda ishlatiladigan dorilarning aksariyati tabiiy mahsulotlardan olinganligi, ular asosan o‘simlik va mevalra, shuningdek, hayvon nomlari bilan bog‘liq nominativ birliklar ekanini kuzatishimiz mumkin.

Stomotologiya va farmasevtika ilmiy, rasmiy terminologiyalari lotin tili negizida vujudga kelgani bois xalqaro harakterga ega hisoblanadi. Farmasevtika soha kontekstida faol ishlatiladigan leksik birliklarni, ya‘ni terminlarni ijtimoiy-siyosiy jabhada va kundalik turmush tarzimizda ham uchratishimiz mumkin. Masalan: doza-dosis (grekcha: dosis letalis minima- o‘ldiradigan kichik doza), ekstrakt-extractum (lotincha: extractum purum- toza ekstrakt).

Shuningdek, pharmacy termini ham XIV asrning oxiridan “dori” (XIII asr.) qadimgi fransuz tilida farmacie “ich surgi” termini ma‘nosida, o‘rta asr lotin tilida esa pharmacia, yunon tilida “pharmakeia” dori vositasini qo‘llash, dori preparati, dori-darmon, sehr jodu yoki ruhiy ta‘sir o‘tkazish yordamida davolash; zaharlanish, xastalikka qarshi dori vositasi terminlari ma‘nolarida qo‘llanilgan. XIV asrdan boshlab dori darmon bilan davolash va uni boshqarish” ma‘nosida, 1833 yilda ilk bor “dori darmon tayyorlash va tarqatish joyi” ma‘nosida qo‘llanilgan. Pharmacia leksemasi tarkibidagi **Ph** harf birikmasi XVI asrda fransuz tilida, XVII asrda esa ingliz tilida qayta tiklangan. 1540-yilda qo‘llanilgan “**pharmaceuticus**” termini fonetik jihatdan biroz o‘zgarishga uchragan va u leksik jihatdan 1640-yilga kelib “**pharmaceutic**” terminiga aylangan. Uning tarjimasida “dori darmonga taaluqli” degan mazmuni anglatib, yunonchadan pharmakeutikos, pharmakeus “dori darmon tayyorlovchi” termini ma‘nosida keng qo‘llanilgan.

Farmasevtika sohasiga oid terminlarning etimologik jihatdan qaysi tilga mansubligi va ularni chog‘ishtirilayotgan tillar tarjimasida qanday berilishini aniqlash va taqqoslash maqsadida quyidagi ma‘lumotlarni jadval shaklda keltirishni joiz deb bildik.

Chog'ishtirilayotgan tillardagi farmasevtik terminlarning etimologiyasi va ularning turlari

Lotin tilida	Etimologiya kelib chiqish tarixi	Ingliz tilida	Rus tilida	O'zbek tilida
Medicamentumremedium	Medicamentum fe'l medicari (dori yordamida davolash)+mentum (ot yas.qo'sh) remedium+ medeo (davolamoq)	Medicine Medication Medicinal agent, Drug, remedy, cure	Лекарственное средство	Dori vositasi
Materia medica, substantia pharmaceutica	Material-mater (ona), (manba) substantia-substans dan, aniq nisbatdagi hozirgi zamon.	Drug substance, medicinal substance, drug	Лекарственное вещество	Dori moddasi
Forma medicamentorum	Medicamentorum Ko'plik Medicamentum birlik	Medicinal form drug formulation Dosage band, dosage form	Лекарственная форма	Dori shakli
Preparatum	Preparatum- lot. Praeparatum (-atum), bosh kelishik	Medicinal preparation, medicine, drug, medical product	Лекарственный препарат	Dori preparati

Terminologiya kichik fan emas, balki fanning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Fransuz tabiatshunosi, zamonaviy kimyoning asoschisi Antuan Loran de Lavuazye o'zining "kimyo bo'yicha asosiy munozaralar" kitobida shunday degan edi: "Siz fanni terminologiyadan, na terminologiyani fandan ajrata olmaysiz, chunki har bir tabiiy fan majburiy ravishda uchta komponentdan iborat: mazmunini ifodalovchi bir qator faktlardan, ular keltirib chiqaradigan tasavvurlardan va bu tasavvurlar ifodalangan atamalardan"

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, lotin tili tibbiyot terminologiyasida, shuning uchun tibbiyotda shunchalik chuqur ildiz otgan va shu bilan birga doimiy ravishda shunchalik samaraliki, unda mavjudligi tabiiy ko'rinadi. Qanday bo'lmasin, ikki ming yildan ortiq davom etgan rivojlanish jarayonida o'ta ta'sirli va hayotiy an'ana boshqa raqobatdosh o'rinbosarlarga to'liq qarshilik ko'rsata olmsligini tasdiqlash mumkin. Tibbiyot fakultetlarida lotin terminologiyasi, uning asosiy maqsadi talabalar va bo'lajak shifokorlarga terminologiyadan aniq va lingvistik jihatdan to'g'ri foydalanish bo'yicha funktsional ko'rsatmalar berishdir.

Yuqorida aytilganlardan xulosa qilishimiz mumkinki, tibbiyot oily o'quv yurtlari talabalari bilan ishlash o'ziga xos tarbiyaviy xususiyatga ega. Shunday qilib, lotin tilining elementlarini o'rganish bo'lajak shifokorlar uchun o'z mutaxassisligini muvaffaqiyatli rivojlantirish va kelajakda shifokorlarining kasbiy tili- tibbiy terminologiyadan malakali foydalanish uchun zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Kondratyev Dmitri, Vylegzhanina Olga, Knyazeva Juliya "Latin and Fundamentals of medical terminology" for medical students, Grodno: GrGMU, 2005*
2. *Л.С. Капитула "Латинский язык и основы медицинской терминологии" Минск, БГМУ, 2003*
3. *Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. 110 б.*
4. *Ahmad Kh. (2000). «Neologisms, Nonces and Word Formation». Int. Congress. (8-12 August 2000, Munich.). Vol II. Munich: Universitat Stuttgart. – P.711-730.*
5. *Chabner, D. E. (1996): The Language of Medicine. W. B. Saunders Company, New York, p. 1.*
- 6.
6. *Abdurashitovna, A.S. (2020) The influence of motivation in the foreign language learning process. Наука и образование сегодня, (6-2(53)), 37-38.*
7. <https://uz.m.wikipedia.org>
8. <https://www.mozocare.com>